

LOTIN IMPERIYASI MANBASHUNOSLIGIDA GEORGIY AKROPOLITNING “TARIX” ASARINI TUTGAN ROLI

Botir Ermatovich Yusupov

Samarqand davlat universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Lotin imperiyasining manbashunosligiga qisqacha tavsif va Vizantiya imperiyasining o`zaro taqsimlanishi, hokimyat uchun kurashlar tafsiloti Georgiy Akropolitning asarida voqealar rivoji va tahlili qisqacha bayon etilgan.

Kalit so`z: Salib, Lotin imperiyasi, Konstantinopol, Smirna, Nikeya, Georgiy Akropolty, Feodor II Laskaris, Fessalonika, monastr.

THE ROLE OF GEORGIAN ACROPOLITE'S "HISTORY" IN THE SOURCES OF THE LATIN EMPIRE

Botir Irmatovich Yusupov

Master of Samarkand State University

ABSTRACT

A brief description of the source studies of the Latin Empire and the division of the Byzantine Empire, the details of the struggle for power.

Keywords: Cross, Latin Empire, Constantinople, Smyrna, Nicaea, George Acropolis, Theodore II Lascaris, Thessalonica, monastery.

KIRISH

Vizantiya tarixi bo`yicha manbalar qadimgi va ilk o`rta asrlar davriga qaraganda rivojlangan o`rta asrlarda aniqrog`i XIII-XV asrlarda ko`proq yaratildi. Shu vaqtgacha Vizantiya tarixi bo`yicha manbalar asosan nimuzmatik, arxeologik materiallar orqalib bizga ma`lum bo`lgan edi. Rivojangan o`rta asrlarga kelib huquqiy aktlar va agrar sohaga tegishli ma`lumotlar asosiy manbaga aylandi. Bunga misol qilib XIII asrga taaluqli Smirna yaqinida joylashgan Lemviotis monastirining arxivlarini keltirish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Georgiy Akropolit 1217-yilda Konstantinopolda zodagon oilasida tavallud topgan. 16 yoshga to`lgunga qadar otasidan ta`lim tarbiyani o`rganib mustaqil

ravishda ta'limni davom ettirish uchun Ioann III Vatis saroyiga keladi. Bu yerda Nekiyalik mashhur faylasuf Nikifor Vlemmidadan arifmetika, tekis va sferik jismlarning geometriyasi, optika, astronomiya, mantiq va tibbiyotga oid bilimlarni o'rganadi. 1256-yilda u bo'lg'usi imperator Feodor II Laskarisning o'qituvchisi etib tayinlanadi. Shuningdek, 1246-yilda Imperator Ioann III Vatis bilan birga Bolgariya yurishida qatnashib, bolgarlar bilan tinchlik shartnomasini imzolashda ishtirok etadi. Lotin imperiyasi haqida ma'lumot beruvchi eng muhim manbalardan biri bu Georgiy Akropolitning "Tarix" asaridir u xronologik jihatdan 1203-yildan 1261-yilgacha bo'lgan voqealarni qamrab oladi. Bu asarni biz Nikita Xoniatning "Tarix" asarining davomi deb ham atashimiz mumkin. Nikita Xoniatning "Tarix" asarining so'nggi boblari 1233-yildagi bo'lgan voqealarni o'z ichiga olardi. Georgiy Akropolit 1234-yildan boshlab o'z boshidan kechirganlarni va mamlakatdagi siyosoy jarayonlarni aniq bayon qilib o'tadi. Muallif asarda hech qanday og'ishlarsiz aniq faktlarni keltirib o'tadi. Vizantiya poytaxti Konstantinopol 1204-yil 12 aprel kuni salibchi ritsarlar tomonidan asrlar davomida turli bosqinchilarning (xunlar, avarlar, protobolgarlar, arablar, bolgarlar) hujumiga dosh bergan, 900 yillik tarixi davomida birinchi marta mag'lubiyatga uchradi. Bosib olingan hududlarda birlashtirilgan Lotin imperiyasi yuzaga keldi. Bundan tashqari Fessolonika qirolligi (1204-1224), Peloponnesdagi Axey knyazligi (1205-1432), Kipr qirolligi (1192-1489) yuzaga keldi. Shuningdek, Lotin imperiyasining tashkil etilishida katta rol o'ynagan Venetsiya ham quruq qolmadi unga Krit va Korfu orollari, Konstantinopolning bir qismi, bir qator portlar, Peloponnes va Kichik Osiyodagi bir necha qal'alar, Egeydagi ko'plab orollarga egalik qilish huquqi berildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Lotin imperiyasi Vizantiya davlat tuzilishining ba'zi xususiyatlarini meros qilib olganiga qaramay, umuman olganda bu fransuz tipidagi feodal monarxiya edi. Bu esa rasmiy ravishda Vizantiya davlatchiligi tiklanganligini anglatardi. Biroq aslida Lotin imperiyasining tuzilishi fransuz modelining keng feodal iyerarxiyasiga asoslangan davlat edi. Imperiyaning markazlashtirilishi shunchaki yuzaki edi. Lotin imperiyasi imperatorining hokimiyati kengash bilan cheklangan edi, uning tarkibiga eng taniqli lordlar va Venetsiyalik zodagonlar shuningdek, oltita maslahatchi kiritilgan. Ushbu yuqori lavozimlarning aksariyati G'arbiy Yevropa an'analariga xos edi, ammo bir qator lavozimlar yunoncha unvonlarga ega edi. Shuningdek Lotin imperiyasida Vizantiyada mavjud bo'lgan soliq tizimi saqlanib qolindi. Lotin imperiyasining siyosiy tuzilishi haqida yetarlicha ma'lumot "Rim assizlari"da topish mumkin.

Salibchilar tomonidan bosib olingan yunon yerlarining g'arbiy chegaralarida yuzaga kelgan Nikeya va Trapezund imperiyalari shuningdek, Epir qirolligi o'rtasida Kichik Osiyoda hukmronlik uchun siyosiy kurashlar boshlanib ketdi. Ikoniya sultoni Sulaymon II (1196-1204) ham Konstantinopol taxtini egallash orzusida edi. Siyosiy jihatdan Vizantiya tarixidagi roli va ahamiyati katta bo'lgan Nikeya imperatorlari o'zlarini Vizantiyaning davomchisi deb bilishardi. Shuning uchun ham g'arb bosqinchiligiga chek qo'yish maqsadida 10 yil davomida har tomonlama tayyorgarlik ko'ra boshladi. Va bu reja 1261-yilda amalga oshdi shu sanada yana Vizantiya imperiyasi qayta tiklandi.

1205-yildan so'ng Mixail I Angel Lotin imperiyasi, Venetsiya va papalik o'rtasidagi munosabatlardan mahoratli foydalana oldi. Nafaqat Epirda o'z hukmronligini balki Kichik Osiyoning g'arbiy hududlariga ham o'z ta'sirini o'tkaza oladigan bo'ldi. 1215-yilda esa Mixail I Angel o'ldirildi. Uning o'rnini ukase Feodor Angel egalladi. U 1209-yilgacha Kichik Osiyodagi Feodor I Laskaris saroyida bo'lgan edi. U Konstantinopolni egallashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun bir necha yil davomida Fessaliyaga yurish qildi va 1224 – yilda Fessalonikani qo'lga kiritdi. Bu voqeadan so'ng Epir qirolligining chegaralari Konstantinopolgacha cho'zildi.

Bu vaqtda Epir qirolligi qudratining eng cho'qqisiga chiqqan vaqti edi. 1230-yil bahorida Bolgar qiroli Ivan II Aseniyaning qo'shinlarini Klokochnitsa jangida mag'lubiyatga uchratdi. 1230-yildagi g'alabadan keyin Nikeya imperatori Bolgariya qiroli Ivan III Vatatsu bilan diplomatik yo'llar bilan Konstantinopolni egallashda ittifoqchi bo'ldi. Ittifoqchi kuchlar Frakiya va Makedoniya hududlarini bosib oldilar. Shunday bo'lsada Bolgariya Ivan II Asenya davridagi qudratini qayta tiklay olmadi. Nikeya esa o'z ta'sir doiralarini Adriatikaga qadar o'tkaza boshladi. 1259 – yilning yozida Pelagoniya jangida “Vizantiya merosi” uchun kurashda so'nggi raqibini ham yo'q qildi. 1261 – yil 25 – iyul kuni Nikeya qo'shini Konstantinopolga kirib keldi. Nikeyaning g'alabasi birinchi navbatda, harbiy-iqtisodiy ustunlik va uning ichki siyosatning barqarorligi bilan bog'liq edi. Hukumatning malakali diplomatiyasi o'z maqsadlariga erishishda mohirona yo'l bilan ishga solindi. Nikeya imperiyasining tez iqtisodiy o'sishining sabablari ichki rivojlanish va geografik xususiyatlar bilan izohlanadi. Shuningdek, Kichik Osiyoning g'arbiy hududlari juda unumdor va serhosil edi. 1204 – yilgacha bu unumdor yerlar Konstantinopoldagi monastrlarga va mamlakatdagi yirik zodagonlarga tegishli edi. Bu yerlar Feodor I ning hukmronligi yillarida foydalanishga ruxsat berildi. Ya'ni imperator yirik zodagonlarni o'z tomoniga og'dirish maqsadida monastrlarning yerlarini olib feodallarga bo'lib

bergan. Bundan tashqari majburiy harbiy xizmatni olib boorish uchun ham ma'lum bir miqdorda yer inom etilgan. Keyinchalik bu tizim an'anaga aylanib qoldi. Ioann III hukumronligining oxirgi yillarida va uning merosxo'rlari davrida zodagonlarni mukofatlash keng tarqaldi. Ularni mukofatlash birinchi navbatda, imperatorlik oilasining vakillari va muhim davlat lavozimlarini egallagan oliy martabali zodagonlar saralab olingan. Sharqiy va janubiy chegaralar Saljuqi turklar bilan urush xavfi har doim ham bor edi. Chunki imperiyaning bu hududlarida turkiy qavmlarning salmog' anchagina edi. Shuning uchun ham hukumat chegara hududda yashaydigan aholining xavfsizligini ta'minlash maqsadida mustahkam istehkomlar qura boshladilar. Amalga oshirilgan bu rejalar dushmanlar hujumidan aholining mol-mulkini asrash edi. Shuningdek, imperiya chegara hududda yashaydigan qabilalardan tabiiy mudofachi sifatida ham foydalanardi. Jumladan Akritlar ana shunday qabilalar sirasiga kiradi. Ular imperiya chegarasi yaqinidagi o'z mol-mulklarini himoya qilardilar. Buni evaziga esa imperiyadan ma'lum bir miqdorda pul olardilar. Nikeya hukumatining ichki siyosati birinchi navbatda kichik va o'rta feodallarning manfaatlarini aks ettirardi. Ushbu ijtimoiy qatlam yunon qoshinining shakllanishining asosini tashkil qilardi. Bundan tashqari imperiya yollanma armiyadan ham foydalanganlib turgan. Asar muallifining ta'rifiga ko'ra Vizantiya armiyasi uchta etnik tarkibdan iborat bo'lgan. Ular rimliklar, skiflar va lotinlar. Mamlakatdagi ko'plab ustaxonalarda qurol-aslahalar ishlab chiqarilgan. Bu esa armiyani sifatli qurollar bilan taminlash imkoniyatini bergan. Nikeya imperiyasining davri oxirgi marta Vizantiya hududida yagona markazlashtirilgan imperiya bo'ldi. Biroq bu birlikni buzishga urinishlar, hukumron sinflar o'rtasidagi o'zaro kurashlar, hukumatning ijtimoiy islohatlarga to'sqinlik qilishi tugamadi. Faqatgina dastlabki 20 yil ichida tashqi xavf ostida bo'lgan savdo-sotiq sohasida bir qancha o'zgarishlar amalga oshirildi. Imperator Ioann III ning mamlakatda amalga oshirmoqchi bo'lgan ijtimoiy sohadagi islohatlari keng zodagonlar ommasining qarshiligiga uchradi. Oxir oqibat 1225 – yilda fitna qurboni bo'ldi.

XULOSA

Umuman olganda biror bir tarixiy jaryonni yoritishda tarixchilarning yondashuvi va albatta tarixiy jarayonga o'zaro bog'liqligi muhim hisoblanadi. Shu asnoda 1198-1204 yillarda amalga oshirilgan To'rtinchi salib yurishi hamda Vizantiya imperiyasining keyingi taqdiri haqidagi qimmatli ma'lumotlarni bergan Georgiy Akropollit aynan usha davr zamondoshlaridan biri bo'lganligi uchun u bergan ma'lumotlar juda ishonchli va qimmatli hisoblandi.

REFERENCES

1. Г.Г.Литаврин – История Византии в трех томах. Москва. 1967 г.
2. Георгий Акрополит – История. Перивод. П.И.Жавронкова Санкт-Петербург “Алетия” 2013 г.